



## MODDIY RESURLAR BILAN TAMINLANISH VA ULARDAN FOYDALANISHNI TAHLIL QILISH

**Matrasulov Baxodir Erbo'tayevich**

*Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi*

**Otajonov Faxriddin Zafar o'g'li**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

**Mamatov Jasurbek Erkinovich**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Moddiy resurslar bugungi kunda iqtisodiyotning barqarorligi va sarmoyaviy rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega. Ulardan tejamkorlik bilan foydalanish, noan'anaviy yo'llarni qo'llash, fantexnika taraqqiyoti natijalaridan unumli foydalanib, tejamkor texnologiyalarni yaratish va qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu resurslar, iqtisodiyotning barqarorligi va sarmoyaviy rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *Moddiy resurslar, ishlab chiqarish, moddiy resurslarni tahlil qilish, mehnat resurslari, mehnat predmetlari, moddiy texnika.*

**Kirish:** Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini natijasi hamda samaradorligi ularning material resurslari bilan ta'minlanganligiga bevosita bog'liqdir. Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni hajmi, sifati ulardagi material resurslarining talab darajasida bo'lishligini obyektiv ravishda taqozo etadi. Resurslar universalligi, yangiligi hamda arzonligi nuqtayi nazaridan zamon talabiga ham mos kelishi lozim, ya'ni korxonalarining material resurslariga bo'lgan talabini aniqlashda me'yoriy hujjat va me'yoriy ma'lumotlardan foydalanish lozim. Sanoat korxonalarida biznes-rejada ko'rsatilgan mahsulotlar miqdorini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan material resurslarining miqdori va qiymati aniqlanadi, ya'ni qancha stanoklar qancha mashinalar, mexanizmlar, shuningdek, boshqa moddiy resurslar bo'yicha alohida-alohida hisob-kitoblar qilinadi.

**Asosiy qism:** Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonalar asosiy maqsadiga erishish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini jumladan mehnat predmetlaridan yani moddiy resurslardan tejab tergab foydalanishga alohida etibor beradilar.

Chunki shuning natijasida ular o'z foydalarini ko'paytirishiga oqibat natijada foydalilik darajasini oshirishga erishadilar Maxsulot ishlab chiqarishda mehnat predmetlarining ya'ni moddiy resurslar ahamiyati juda katta Masalan ulkarsiz ayrim hollarda maxsulot ishlab chiqarish Imkoniyati cheklanadi ayrim xollarda esa umuman mumkin emas. Masalan mehnat predmeti xisoblangan metallar elektr quvvatlari va boshqalar mavjud bo'lmasa maxsulot ishlab chiqarishdan aniqlab olisah mumkin



Asosan korxonalar xo'jaliklarida mehnat predmetlariga quyidagilar kiritilgan: Xom ashyo materiallar ; Elektr energiya; yoqilg'i Yog'lovchi materiallar va boshqalar kiritiladi. Korxonalar moddiy resurslar bilan taminlanganligini va ulardan samarali foydalanishni tahlil etishda iqtisod tahlilining eng asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar xisoblanadi

- Korxonalar birlashmalarining zaruriy moddiy resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash

- Moddiy texnika ta'minoti belgilangan rejasining haqiqatga yaqinligini tekshirish

- Moddiy resurslarkorxonalar yetkazib berish xajmini sifatligini kompleksligini xamda maromiylik darajasini belgilash transport tayyorlov xarajatlarini hisoblash

- Moddiy resurslarni yetkazib berish borasida korxonalararo tuziladigan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilganligini aniqlash

- Materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni maxsulot hajmiga xamda uning tannarxiga muvofiq jihatdan hisoblash

- Xom ashyo materiallar yoqilg'I va materiallarga baxo berishda foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarini aniqlash tahlil etish va hakozi.

Korxonalarda moddiy resurslardan to'liq bir meyorda hamda samarali foydalanilganlik darajasini tahlil qilish uchun shu xolatlardan ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur asosiy fondlar bilan taminlanganlik hamda aylanma fondlar bilan taminlanganlik darajasi xisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarni moddiy resurslarni alohida tirlari bo'yicha hisoblash mumkin Masalan stanoklar bilan xom-ashyo bilan elektr energiya bilan yoqilg'i bilan va boshqa resurslar bilan ta'minlanganligini aniqlash mumkin. Moddiy resurslardan foydalanishning to'liqliligini asosan korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi isbotlaydi.

Moddiy resurslardan foydalanishni iqtisodiy samaradorligini korxonalaridagi fondlar qaytimi xamda fondlar sig'imini isbotlaydi Fondlar qaytimini aniqlash uchun korxonalar yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi maxsulot xamda tovar maxsuloti qiymatini asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini taqsimlash lozim Fondlar qaytimining iqtisodiy mohiyati bo'lib korxonaning xar bir so'mlik asosiy fondlarga to'g'ri keladigan yalpi maxsulot yoki tovar maxsulot yoki tovar maxsulotini ko'rsatkichi hisoblanadi

**Xulosa:** Qachonki xomashyo va material o'z vaqtida korxonaga yetkazilib kelsa korxonalar ishi to'xtab qolmaydi demak o'sha olib kelingan xomashyo hammasi kompleks bo'lishi kerak sifat darajasi buyurtmaga asosan bo'lishi kerak. Amal qilish



muddati va belgilangan vaqtda xomashyo yetkazilib kelishi kerak bundan kelib chiqqan xolda korxonalararo maxsulot ishlab chiqaradigan korxonalar xomashyo yetkazib beradigan korxonalar o'rtasida shartnoma tuziladi, shartnoma o'z vaqtida tuzilib shartnoma bandiga asosan vaqtda bajarilishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b
2. Muxametov, A., Matrasulov, B., Chorshanbiyev, U., & Abduvoxidov, A. (2024). QAYTA IJARAGA OLISH UCHUN ASOSIY VOSITALARNI SOTISH HISOBI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 182-191.
3. Gulizahro, T., Iroda, O., & Sevara, M. (2023). Pul mablag 'larining korxonalar iqtisodiyotida tutgan o 'rni." *Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi*, 2(10), 45-47.
4. Sharipova, S., & Xalimova, F. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF TEACHING A LANGUAGE IN THE CLASSROOM AND THEIR SOLUTIONS. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 133-135. <https://doi.org/10.2024/41yemx68>
5. Gulizaxro, T., Mavlyuda, I., Shaxnoza, A., & Hilola, S. (2023, April). Buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida raqamlashtirishni takomillashtirish. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 4, pp. 102-104).
6. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 3(B1), 29-34.
7. Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 140-146.
8. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O 'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G 'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
9. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOG Y IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 5-12.
- 10.Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).